

AHMAD DONISHNING “NAVODIR UL-VAQOE” ASARIDAGI IJTIMOIY DAVLAT VA DINIY BAG‘RIKENGLIK MASALALARI TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-340-345>

Jo‘raboyeva Ruxsora Muhiddinjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bitiruvchisi, magistr.

Saydaliyeva Nigora Zaynitdinovna

TDSHU Sharq falsafasi va germetevtika kafedrasasi.

f.f.n. dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Donishning ilmiy merosi, jumladan, ma’rifatparvarlik qarashlaridagi ba’zi g’oyalarning “Navodir ul-vaqoe” asari orqali tadqiq qilinadi. Bu g’oyalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili amalga oshirilib, bugungi kundagi dolzarbligi yoritiladi. Asarda ilgari surilgan fikrlarning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, marifatparvarning qarashlari orqali o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitiga ham baho beriladi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Donish, “Navodir ul-vaqoe”, ma’rifatparvarlik, adolat, ijtimoiy davlat, diniy bag‘rikenglik, taraqqiyot.

KIRISH

Ahmad Donish XIX asr Buxoro ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan yirik mutafakkir, ma’rifatparvar olim va yozuvchidir. U o‘z davrining ilg‘or fikrli ziyolilaridan biri sifatida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni chuqur tahlil qilgan va ularni isloh qilish zarurligini ilgari surgan. Ahmad Donish o‘z asarlarida ilm-ma’rifat, adolat va insonparvarlik g’oyalari asosiy o‘ringa qo‘yib, xalqning ongini uyg‘otishga intilgan.

Ahmad Donish ijodi juda keng qamrovda bo‘lib, unda islom tarixi va undagi muommoli masalalardan tortib, davlat boshqaruv usuligacha, koinot ilmidan tortib, Buxoro tarixigacha bo‘lgan noyob ma’lumotlarni topish mumkun.

O‘sha davr ma’rifatparvarlaridan biri Sadr Ziyo “ Ahmad Mahdum tahallusi Donish, Ahmad Kalla nomi bilan mashhur bo‘lgan donishmand, ilmlar borasida yagona edi. Barcha hunarlardan boxabar bo‘lib, u rasm chizishda Behzodu Moniy, astronomyada Ulug‘bek Ko‘ragoniy, hattotlikda Mir Ali, musiqada Zuhrai falakka (musiqqa monandi), jadvalshunoslikda (lavohiya jadvalkashi)Mir Shafero Soniy, shifokorlik va tabobatda Abu Ali, sahovatda Hotam Toy, she‘r yozishda Sa’diy Sheroziy, nasrda Husayn Koshifiy darajasiga yetgan edi”[1, 27] deb yozadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asarida ilgari surilgan ijtimoiy davlat va diniy bag‘rikenglik g’oyalari tahlil qilish hamda ularning bugungi jamiyat uchun ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu asarda ifodalangan ma’rifatparvarlik qarashlari va ijtimoiy-falsafiy g’oyalarni zamonaviy nuqtayi nazardan qayta baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi Ahmad Donish asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy davlat va diniy bag‘rikenglik tushunchalarini aniqlash va ularning falsafiy mazmunini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- “Navodir ul-vaqoe” asarida ijtimoiy davlat g‘oyalarining ifodalanishini o‘rganish;
- diniy bag‘rikenglikka oid qarashlarni tarixiy kontekstda tahlil qilish;
- Ahmad Donish g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta‘sirini aniqlash;
- uning qarashlari va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni yoritish.

Tadqiqot manbalari sifatida Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asari hamda unga oid klassik va zamonaviy ilmiy adabiyotlar, shuningdek, Scopus va Web of Science ma‘lumotlar bazalariga kiritilgan ilmiy maqolalardan foydalanildi. Tadqiqotning epistemologik asosi sifatida germenevtik yondashuv qabul qilinib, asarda ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarni tarixiy va zamonaviy kontekstda talqin qilish metodologiyasi asos qilib olindi.

Muhokama va natijalar.

“Navodir-ul vaqoe” Ahmad Donishning eng katta asari hisoblanadi. Bu asarning yaratilishi haqida o‘zi quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “.....zamona ahlining qilgan ishlari , ularning harakatlari menga yoqmas edi. Juda ko‘nglim olinib yuragim torayib ketganda qayg‘u-alamlarimni chiqarish uchun do‘stlarim yoniga qalam ko‘tarib borib, qog‘oz yuzini qoralash bilan shug‘ullanar edim. Bu qog‘oz sahifalarini qora qilishimdan oydin va ravshan ma‘nolar kelib chiqar edi.....Mening mijozimni bilgan shu yozilgan tarqoq varoqlarni, tartibga kiritilmagan hikoyalarni ko‘rib: Agarda bu yozilgan narsalar shunday qolsa, shamolga sovurulur, o‘tga tushub yonur, suvga oqib ketur; shuning uchun o‘z yozganlaringni boshqalarning so‘zlaridan ajratib, bir to‘plam qilib kitob holiga kiritgin; sendan shu qoladi, do‘stlaring uchun esdalik bo‘ladi, yoq‘ligingda bor bo‘lib, o‘lganingda tirilasan”, -dedilar”[2,164]. Haqiqatda asar Ahmad Donish ismini tarixga muhirlanadi. Unda davr ruhiyati, insonlarning hayot tarzi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va ahloqiy pand-nasihatlar ham yoritilganligi ahamyatini yanada oshiradi.

Sadriddin Aniy Ahmad Donishning bu mashhur asari haqida yozar ekan uni Buxoro yoshlariga ko‘rsatgan ta‘sirini alohida takidlaydi. Ayniyga ko‘ra bu asar nafaqat qiziqarli hikoyalar bilan boyitilgan, balki unda Buxoro hayotining salbiy jihatlari ham ochiq-oydin yoritilgan : “Bu asardagi keskin tanqid bizni o‘ziga jalb etdi. Natijada, amir, uning vazirlari, mullalar va o‘sha davrning hayoti bizga butkul yangi nurda ko‘rina boshladi”. Shu bois S. Ayniy o‘zining va do‘stlarining bu asar bilan tanishishini “chinakam ma‘naviy inqilob”, deb baholaydi.[3,13] Asarning “inqilob” deya baholanishi XIX asr ohiri XX asr boshlarida taraqqiy etgan ma‘rifatpavrvorlik harakti boshlanishiga sabab bo‘lganligidir. U nafat tor doiradagi ziyolilar orasida, balki savdogar va hatto diniy ulamolar orasida ham tarqalib, muhokamalarga sabab bo‘ldi. Mazkur kitob orqali xalqning og‘ir ahvoli va boshqaruvdagi mansabdorlarning kirdikorlari fosh etilishi ortidan boshqa ilg‘or yoshlar ham o‘zlarini tanqidiy fikrlarini bildira boshlashdi.

Ahmad Donishning zamondoshi Hoji Azim Shariy shunday yozadi : “ Nodir voqealar” deb nomlangan buyuk asarida Ahmad Donish etika, falsafa, huquq, kabi fanlarning rivojiga katta hissa qo‘shadi. O‘tkir mantiqiy mushohadasi bilan o‘zining yuksak aqliy salohiyatini, olimlik ya yozuvchilik mahoratini namoyon etadi. Asarning inson taqdiri va inson huquqlari haqidagi bo‘limlarida Payg‘ambar hadislari va oyatlaridan ustalik bilan foydalanib, shariat peshvolari da‘vo qilayotgan mavhum tushunchalarning jamiyat va xalqqa zararini ochib beradi. Fanda haqiqatni qidirishdan uzoqda bo‘lgan insonlargina bu kitobning mohiyatini tushunmay “o‘rnatilgan qoidalarning rad etilishi va xatoliklarning namoyon bo‘lishi deyishadi”[4,16].

Mazkur asar 15 yil davomida ya‘ni 1870-1885 yillar oralig‘ida yozilgan. Asarning asosiy bobi “Mamlakatni boshqarish va xalqni ma‘rifatli qilish” deb nomlanadi. Mazkur bobda insonlarni ilm-ma‘rifat egallashga, o‘qishga undar ekan shunday deydi: “ Har bir musulmon odam eng avvalo o‘ziga zarur bo‘lgan ilmlarni o‘qishi farzdir. Shundan so‘ng tirikchilik uchun biror kasb o‘rganish lozim. Qaysi ilm va hunar kishining aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan unday ilm va hunar o‘z egasini bu dunyoda ham, u dunyoda ham qo‘llab-quvvatlaydi. Agar ilm va hunar ruhga tarbiya bermay, tanni semirtirib, orzu-havasni ko‘paytirib, nafi shaytonga yordam beradigon bo‘lsa, unday ilm va hunar egasining ofati, xudoning la‘natidir”[5,28]. Asarda “Mamlakatni boshqarish va xalqni ma‘rifatli qilish haqida” deb nomlanuvchi bob mavjud bo‘lib, bu bob uch faslni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi fasl amirlarning askarlar bilan hamda davlat arboblari, hukumat xizmatchilari bilan qanday yo‘l-yo‘riq tutishlari kerakligi haqida .

Uchinchi fasl podshohlarning elni idora qilishlari, xalqparvar bo‘lishlari, qo‘l ostidagi fuqarolarning butun ehtiyojlarini qanoat qilarlik darajada chiqazib turishlari haqida.

Xotima podshohlarning o‘z yaqinlari hamda maslahatchilari bilan suhbatlar o‘tgizishlari va majlislar belgilashlari haqida..

Mutafakkir siyosatchi, islohotchi davlat arbobi sifatida vatanidagi boshqaruv usulini boshqa davlatlardagi davlat boshqaruv usullari, xususan, Rossiya bilan solishtiradi, vatanini ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan orqada qolganligini ochiq tanqid qiladi. Bu qoloqlikdan chiqish uchun ijtimoiy-siyosiy islohotlar o‘tgizish zarur ekanligini uqtiradi. Ahmad Donish o‘z vatanini qoloqlikdan chiqarish yo‘llarini tinmay izlaydi. Mutafakkirning fikriga ko‘ra "inson o‘z vatanini himoya qilsagina, o‘z xalqi bilan birga bo‘lsagina u hamisha barhayotdir".[6,73] Mutafakkirning fikriga ko‘ra, "Davlat bir guruh kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun emas balki, xalq manfaatlari uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilishi lozim. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma‘rifatli, odil va o‘z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog‘i shart.

Ahmad Donish avvalo odil, ma‘rifatparvar, adolatli podshoh tarafdori edi. Donish asarlarida davlat boshqaruvi haqidagi o‘zining ijtimoiy-siyosiy fikrlarini bayon etadi va bir necha boshqaruv tizimlarini tavsiya etadi, ularni adolatli shaxslar boshqarishi kerakligini va davlat hisobidan ularga maosh tayinlanishi lozimligini takidlaydi. Donish katta bir davlatni boshqarishni bir kshiga topshirib bo‘lmaydi,

degan xulosaga kelib, Yevropa mamlakatlaridagi Parlament deb ataladigon davlat tashkilotini tavsiya qiladi :“Sulton bo‘lsin, albatta har bir tabaqadan vakili bo‘lsin, har bir kattaroq, muhimroq ish uchun har qavmda yig‘ilish qilsin. Parlament (dorulmashvarat) tayinlasin, unda munosib rais bo‘lsin, har kun vakili to‘planib, mamlakat ishlari, iqtisodiyoti, obodonchilgi haqida yig‘ilish qilsinlar, har bir yaxshiyomon tomonlarini mastlahatlashib, bir fikrga kelsinlar”[2,76]

Ahmad Donish ilgari surgan parlament g‘oyalari bugungi O‘zbekiston siyosiy tizmidagi aks etmoqda. Shuningdek, Sh.Mirziyoyev demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruvni rivojlantirish tarafdori bo‘lib, bu uning parlamentni “haqiqiy xalq uyi”ga aylantirish haqidagi fikrlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.[7]

Ahmad Donishning fikricha, davlatning eng birinchi vazifasi-xalq haqida g‘amxo‘rlik qilishdir. Shuning uchun hokimlar davlat iqtisodiyotining yuksalishi, kanallar qazish, suv omborlari, yo‘l, ko‘prik qurush, yerlarni o‘zlashtirish, yer osti boyliklarini qayta ishlash, xalqni ma‘rifatli qilish, fan va texnikani rivojlantirish, maktab, maxsus o‘quv yurtlari ochish haqida qayg‘urishga majburdirlar.Bu bilan Ahmad Donish davlat vazifalarining ijtimoiy manfaatlarga bo‘ysunishini ko‘rsatgan edi [8,12].

Ahmad Donishning fikricha, davlatning eng birinchi vazifasi-xalq haqida g‘amxo‘rlik qilishdir. Shuning uchun hokimlar davlat iqtisodiyotining yuksalishi, kanallar qazish, suv omborlari, yo‘l, ko‘prik qurush, yerlarni o‘zlashtirish, yer osti boyliklarini qayta ishlash, xalqni ma‘rifatli qilish, fan va texnikani rivojlantirish, maktab, maxsus o‘quv yurtlari ochish haqida qayg‘urishga majburdirlar. Bu bilan Ahmad Donish davlat vazifalarining ijtimoiy manfaatlarga bo‘ysunishini ko‘rsatgan edi.[8,34]

Bu qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yoqotmaganligini prezident Sh.Mirziyoyevning “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigon vaqt keldi”[9] jumllaridan yanada aniqroq tushunish mumkun. Bugungi siyosatimiz asosi va mazmuni davlat xalqni faravon qilish va xalq manfaatlari uchun ishlashi lozimligidir.

Uning diniy bag‘rikenglik yoki islom dinining ba’zi masalalariga oid qarashlari “Navodir ul-vaqoe” va “Nomus-ul-a‘zam” asarida aks etgan.“Navodir ul-vaqoe” asarida shunday fikrlarni keltiradi : Jannat musulmonlar uchun, do‘zax kofirlar uchun deydilar, ammo musulmonlar orasida kofirlardan ham battarroq buzuq va ikkiyuzlamachilar bor”. [2,65]

Ahmad Donishning ushbu fikri jamiyatdagi adolat va haqiqatni izlashga qaratilgan. U faqat tashqi e‘tiqodga qarab odamlarni baholash noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydi, ya’ni, kimdir o‘zini musulmon deb atashi bilan emas, balki uning amallari va axloqi bilan baholanishi kerak. Bu fikr diniy bag‘rikenglik nuqtai nazaridan ham muhimdir, islom dini har bir insonni uning yurakdagi e‘tiqodi va amallariga qarab baholash kerakligini o‘rgatadi.

Donish dinga qarshi emas edi, aksincha, u dinning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlard. Buxoroda hokimiyatda demokratik o‘zgarishlar yuz

bersa, u dinning tarbiyaviy jihatlari faol ravishda foydalanilishi kerakligini ta’kidlagan. U hech qaysi dinga ta’qib o’rnatilmasligi kerak, deb hisoblagan ¹[2,34].

Bu g’oyalar buguni siyosatimizda “Vijdon erkinligi” tushunchasi bilan namoyon bo’lmoqda. Jumladan 2021-yil 5-iyulda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi.

XULOSA

Ahmad Donish XIX asr Buxoro amirligida yetishib chiqqan yirik mutafakkir, tarixchi, islohotchi va ma’rifatparvar sifatida o’z davrining eng ilg’or ziyolilari qatoridan joy oldi deyish mumkin.

Birinchiidan, u o’zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, tarixiy tahlillari hamda ilm-fan va ta’lim masalalariga oid g’oyalari orqali o’zbek ma’rifatparvarlik tafakkurining shakllanishiga beqiyos hissa qo’shgan. Donishning ma’rifatparvarlik faoliyati, avvalo, xalq ongi va tafakkurini yoritish, adolatsiz siyosiy tuzumlarni tanqid qilish va taraqqiyot sari yo’l ko’rsatishga qaratilgan edi va u o’z qarashlarini nafaqat ziyoli qatlam balki oddiy xalq orasida ham tarqalishiga erishdi.

Ikkinchiidan Ahmad Donish o’z asarlarida xalqni jaholatdan xalos etish, ularni dunyoqarashi, tafakkuri va axloqiy kamoloti jihatidan yuksaltirish zarurligini alohida urg’ulaydi. U ilm-fanni inson kamolotining asosiy omillaridan biri deb bilgan va aynan ma’rifat orqali jamiyatda adolatli tuzum o’rnatish mumkin deb hisoblagan. Uning fikricha, musulmon jamiyatlar taraqqiyotdan ortda qolayotganining sababi – ilmiy fikr va tafakkurga e’tibor bermaslik, islohatsiz jamiyatni abadiy turg’unlikka mahkum etishdir. Shu bois u hukmdorlar, din peshvolarini tanqid qiladi va barcha tabaqalarda ma’rifatni yoyish zarurligini uqtirgan zamonasining birinchi ma’rifatparvari bo’ldi.

Uchinchiidan, Ahmad Donish o’zining tarixiy asarlarida G’arb davlatlarining rivojlanish sabablari, texnik taraqqiyoti, ta’lim tizimi va ijtimoiy hayotini tahlil qilgan. U shuningdek Yevropa jamiyatlaridagi ilg’or tajribalarni musulmon Sharqiga tatbiq etish zarurligini ta’kidlab, o’z davridagi konservativ qarashlarga qarshi islohiy yondashuvni ilgari suradi. Aynan shu bois ham uning qarashlari zamonaviylik, ochiqlik, tanqidiy tafakkur bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Sadr Ziyoyi. Navodiri Ziyoiya.–Dushanbe: Adib,1991. – 150 c.
2. Donish A. Navodir ul-vaqoe. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 312 b.
3. Хотамов Н. Б. Свержение эмирского режима в Бухаре. – Душанбе, 1997. – 348 с.
4. Хадизаде Р. Ахмад Дониш-писатель и просветитель. – Душанбе, Дониш,1976.–35 с .
5. Sh.S.Bozorov. Ahmad Donish asarlarida jamiyat va davlatchilik to’g’risidagi qarashlar tahlili // Ilmiy axborotNoma.2021,№9. – 32 b.

¹ Ahmedova Z.Religious and Mystic Views Of Ahmad Donish//Electronic Research Journal of Social sciences and Humanities.2020.№2. – B. 6.

6. Бертельс Е. Э. Рукописные произведения Ахмада Калла Том 3.–Душанбе : Труды Таджикистанской базы АН СССР, 1936. – 114 с.
7. Oliy Majlis Qonunchilk palatasining beshinchi chaqiriq yalpi majlisidagi nutqi.2024–yil 18–noyabr.
8. Ташкулов Дж Туси. Дониш. – М.: Наука, 1990. – 122 с.
9. Sh.Mirziyoyev.O'zbekiston Liberal–demokratik partiyasining VIII syezdidagi nutqi, 2016–yil.19–dekabr.
10. Ahmedova Z.Religious and Mystic Views Of Ahmad Donish//Electronic Research Journal of Social sciences and Humanities.2020.№2. – В. 6.